

Umlar bo'ladiki...

- Quyosh yotog'idan chiqmay Hidoyat,
Velosiped minib ketadi erta.
Bolalik chog'idan singdi bu odat,
Onai zori ham der necha marta:
- Dam olsang, hoy bolam, biror kun qolib?
 - Onajon, bo'lmaydi, musobaqa bor!
 - Ayoli - Hadicha ba'zan der nolib:
 - Munchalar notinchsiz, muncha beqaror?
 - Jonginam, yur birga, musobaqa bor,
Sen ham qatnashaqol, katta anjuman.
 - Lekin, borar edim, uy ishi qator,
Hamisha g'olibsiz, bo'lmasin dushman...
 - Ishdan qaytar ekan horg'in Hidoyat,
Bog' tomon buribdi, olay deb orom.
Qizg'in suhbat qurib turar nihoyat –
Maqsud Shayxzoda va G'afur G'ulom:
 - Hozirgi yoshlarda nechun iymon sust,
Milliy yigitlarni toptamoq nechun?
 - Sekin so'zla G'afur, attang, ming afsus...
Ularni qo'llashga kelar yaxshi kun...
 - Qaytmas pahlavonlar, mardlar yurti bu,
Chechan o'g'illarni tuqqan xotinlar.
 - Sening aytganlaring eng oliy tuyg'u,
Borib ayt, xotinlarga: endi, qaytinglar!
 - Yo'q, do'stim, boshqa gap: ataylab shundoq
Bizga yo'l bermaslar, ishonchlari yo'q.
Axir, biz Temuriy, Boburiy idrok,
Shuni bila turib, do'q urarlar, do'q?..
 - Sport maydonlari, maktablar kerak,
Dunyoga chiqishning bitta yo'li shu.
 - Shabboda bo'lmasa qim etmas terak,
Larzaga solguchi siz bilan biz-ku?
 - Hidoyat shoirlar so'ziga qondi,
Muskul tomirlarin zo'r kuch qopladi.
Butun vujudida alam uyg'ondi,
O'zini pishitdi, yana tobladi.
Keyin quyosh botdi, ufqda lola,
Qonga bo'yaldimi go'yo ona yer?

To'lan Nizom.
Oq gul kitobidan.